



1991-yildan
chiqa boshlagan

Maxsus son

ISSN 2010-5584

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz

TOSHKENT VILOYAT CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI - 5 YOSHDA



Ushbu son



Dolzarb mavzu

Og'zaki va yozma nutq –
komillik belgisi

5
bet



Tahlil

Hamid Olimjon lirikasida
epitetning semantik-
stilistik xususiyatlari

16
bet



Tadqiqotlar

Navoiy lirikasida obrazni
ifoda etishda ritm va
mazmun uyg'unligi

49
bet



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

Maxsus son.

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor SAIDOV
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Yorqinjon ODIOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'liqin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zulxumor MIRZAYEVA
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinsbosari)

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Yuliya MUSURMANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
vab-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnaldan nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.
Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga. 2022.25.06. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/8. Shartli bosma tabog'i 6.0. «Arial» garniturasini. 10, 11 kegl. «ECO TEXTILE PRODUCT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma ___ Adadi 2100 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

1991-yildan chiqa boshlagan

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ
LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

G'afurjon Muxamedov. Toshkent viloyat chirchiq davlat pedagogika instituti - 5 yoshda	2
DOLZARB MASALA	
Rayxon Rasulova. Og'zaki va yozma nutq - komillik belgisi	
ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR	
Feruza Murodova. Maktab adabiyot darslarida hikoya janrini o'qitish texnologiyasi	7
Sarvinov Berdiyeva. O'quvchilarda matn bilan ishlash va tahlil qilish	8
ko'nikmasini shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari	8
Ruxsora Murodova. ona tili ta'limida nostandart testlardan foydalanish usullari	11
Tojixon Sabitova. Maqollar badiiyatiga doir	12
Sirdaryoxon O'tanova. Adabiy qahramonlar ruhiyati va tasvir mushtarakligi	14
TAHLIL	
Mohizar No'monova. Hamid Olimjon lirikasida epitetning semantik-stilistik xususiyatlari	16
Gulmira Komilova. Tilshunoslikda lingvokulturologiya	18
Nilufar Ataqulova. O'tkir Hoshimov ijodida obraz yaratish mahorati	20
Umida Shermatova. Tabaqalashtirilgan adabiyot ta'limida binar ma'ruza metodi	22
O'tkur Islamov, Gulzoda Bekmuratova. Madaniy nutq - bebaho ma'naviy boylik!	
Adiba Davlatova. So'zning asl ma'nosi - shoirning asl dardi	
Nodira Xoliqova, Humoyun Umaraliyev. Komil inson masalasi - jamiyat masalasi	28
Iroda Xoliqulova. Hamza Hakimzoda niyoziyning dramalarida monologik nutqning o'rni	30
Nizomiddin Bozorov, Ulug'oy Choriyeva. Dramatik asarlarda makon, zamon va badiiy tilning komparativ qirralari	32
Bahoroy Eshmanova. Ingliz va o'zbek maqollarining kognitiv-qiyosiy tahlili	34
Ziyoda Usmonova. Ta'lim tizimiga oid kuzatishlar, tahlillar va takliflar	36
Gulshodaxon Tojiboyeva. Abdulla Qodiriy va zamondoshlari ijodida ayollar obrazining mushtarak jihatlari	38
Emina Achilova. O'tkir Hoshimovning "urushning so'nggi qurboni" hikoyasida psixologik tasvir	40
Musajan Tadjibayev. Germenevtikada psixologik talqin muammolari	42
TADQIQOT	
Hoshimjon Quchqorov. Tarjimon, tarjima va matn	44
Nafisa Rahmanova. Nizomiy va Navoiyning ota-o'g'il munosabatlari haqidagi qarashlari	46
Laylo Xasanova. Navoiy lirikasida obrazni ifoda etishda ritm va mazmun uyg'unligi	49
Arofatoy Muydinova. O'zbek milliy uyg'unlash adabiyoti vakillari ijodida muvashshah san'ati	51
Mohigul Mavlonova. "Farhod va Shirin" dostonida shopur obrazi talqini	53
Nizomiddin Bozorov, Mohira Hayitova. Samimiyatning teran badiiy ifodasi	55
Ra'no Xayrullayeva. O'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish, nutqini o'stirish yo'llari va vazifalari	58
Nafisa Muratova. Maktabda tarixiy so'zlar mavzusini o'tishning o'ziga xos usullari	60
Abdushukur Shofqorov. "O'zbek tilining izohli lug'ati" dagi dialektal so'zlar	63
Rahmatilla Norbekov. Munglig' qalblar kuychisi	65
KICHIK TADQIQOT	
Qodirjon Mo'ydinov. Sud nutqi leksikasidagi o'zlashma so'zlar	67
Shahnoza Azimjonova. Akademik Naim Karimovning ijodkor portretini tarixiy jarayon zaminida o'rganish mahorati	69
Xosiyat Abduqahhorova. Mustaqil so'z turkumlarida antisemik munosabatlarning ifodalanishi	70
Dildora Yorbulovala. Hamza hakimzoda niyoziyning ashulalarida xotin-qizlar mavzusi	72
Aziza Avezova. Alisher Navoiy "turkiylar choseri" mi?	73
Nodira Xolikova. Millat va jamiyatning badiiy in'ikosi	76
Hikmat Hikmatov. Adabiyot darsida yangi - "xamsa" metodidan foydalanish usullari	78
Xumoyun Umaraliyev. Hamza Hakimzoda Niyoziyning she'riyatida erk va bilim talqini	80

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ
LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

jurnali

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining
Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

MAKTAB ADABIYOT DARSLARIDA HIKOYA JANRINI O'QITISH TEXNOLOGIYASI

(Sh.Xolmirzayevning "Ot egasi" hikoyasi misolida)

Zamonaviy adabiyot o'qituvchisi darsda o'quvchilarda ezgulik, insof-diyonat, mehr-oqibat va bag'rikenlik tuyg'larini uyg'otishga muhim e'tibor qaratmog'i darkor. Bunday ma'naviy huquqqa ega bo'lish uchun esa biz o'qituvchilar, avvalo, katta bilim va hayotiy tajribaga, keng dunyoqarash, yuksak ijodiy mahoratga, zamonaviy innovasion bilimlarga ega bo'lishimiz kerak. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'qituvchi va ziyolilarga murojaatida O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni uchinchi Renessans poydevorini yaratish asosiy maqsad qilib belgilanganini ta'kidlar ekan, bunda ta'lim sifatini ta'minlash dolzarb ahamiyat kasb etishiga urg'u berganlari bejiz emas.

Ma'lumki, O'zbekiston 2021-2022-yillarda ilk marotaba ta'lim sifatini baholash bo'yicha PIRLS, PISA va boshqa xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etadi. Shunga ko'ra, 2000-yildan buyon har 3 yilda o'tkazib kelinayotgan, 2022-yilda 90ga yaqin davlat ishtirok etishi rejalashtirilayotgan PISA tadqiqotlarida 15 yoshli o'quvchilarning o'qish savodxonligi, matematika va tabiiy fanlar yo'nalishlari bo'yicha bilimiga baho berildi. PISA tadqiqotlarida o'quvchi dasturni o'zlashtirganligi emas, balki bilim va ko'nikmalarni hayotda qay darajada qo'llay olishi baholanadi.

Bu tadqiqotlar Yevropa davlatlari orasida "o'qish savodxonligi" deb atalgan va o'quvchini tahlilga undaydigan adabiyot fani yo'nalishi bo'yicha bugungi kun o'quvchisining fikrlay olish, tasavvurini boyitish, ziyrakligi, diqqatini oshirish, nutqini o'stirish, o'z shaxsiy fikrini ayta olish, hayotga real qarashini shakllantirish, matnni tahlil qilish imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi xizmat qiladi.

Shundan kelib chiqqan holda biz bu maqolamizda maktab darsliklaridagi ayrim kichik epik janrlarni xalqaro talablar asosida tahlil qilish texnologiyasini ishlab chiqdik. Tadqiqot obyekti sifatida Shukur Xolmirzayevning "Ot egasi" hikoyasi asos qilib olindi.

Maktab o'quv dasturining adabiyot fani o'quv yuklamasida ushbu asarning o'rganilishiga 1soat ajratilgan. 45 daqiqa davomida 1600 so'zdan ortiq ushbu asarni o'rganib, tahlil qilish anchayin qiyin masala. Asarning ifodali, tushunarli qilib o'qilishi uchun kamida 20 daqiqa kerak bo'ladi. Tashkiliy ishlar va o'tilgan mavzuni mustahkamlash bosqichlariga mashg'ulotning 10-15 daqiqa ketishini inobatga olsak, qolgan daqiqalar o'quvchining asarni tahlil qilishi uchun yetarli emasligini ko'rsatadi. Shunday ekan, o'quvchilarni xalqaro tadqiqot metodlar-

iga tayyorlashdan oldin o'quv dasturlari va mavzularga ajratilgan soatlarni bir tahlil qilsak, maqsadga muvofiq bo'lar edi (!).

Asar o'quvchilarga o'qib eshittirilishidan oldin, ular dan hikoyani diqqat bilan eshitish talab qilinadi. Har bir voqeaga, har bir detalga va har bir obrazga e'tibor berish kerakligi ta'kidlanadi.

Hikoya o'qituvchi tomonidan o'qib beriladi. O'quvchilar diqqat bilan tinglaydilar. Asar o'qib bo'lingach, o'qituvchi sinfni 3 ta kichik guruhga ajratadi va kichik guruhlarni asarni turli usullar bilan tahlilga chaqiradi:

1-usul. "10 x 10" yoki "O'ntalikni top" metodi.

Bunda o'quvchilar berilgan savollarga 10 ta variantdagi javob keltirishlari talab etiladi. Bu usul o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi, so'z boyligini oshiradi, sinonim so'zlardan foydalanish mahoratini shakllantiradi, zehning o'tkir bo'lishi va har bir narsaga diqqat bilan qarashiga o'rgatadi.

1-kichik guruh. Asarning bosh qahramoni kim? Unga 10 ta ta'rif bering.

Masalan: Asarning bosh qahramoni Inod: 1) oilasidan ayrilgan inson; 2) mehribon muallim; 3) jonkuyar, jafokash kishi; 4) sabr-toqatli, itoatkor shaxs; 5) yaxshi ulochi chavondoz; 6) oilasiga va otiga vafodor; 6) ishonuvchan; 7) kimsasiz kishi; 8) xotiralari bilan yashaydi; 9) odamovi va og'irkarvon yigit; 10) taqdirga tan beruvchi, kurasha olmaydigan shaxs.

2- kichik guruh. Asarning ikkinchi darajali qahramonlari kimlar? Ularga 10 ta ta'rif bering.

Asarning ikkinchi darajali qahramonlari Egamberdi Xudoyberganov va Bo'riboy.

Egamberdi: 1) kichik leytenant; 2) rahmsiz va insofsiz odam; 3) nafsining quli; 4) poraxo'r; 5) yolg'onchi, razil kishi; 6) Qorabayir otning o'limiga sababchi; 7) sigir va qo'yga ham qanoat qilmagan o'g'ri; 8) qo'rqqoq odam.

Bo'riboy: 9) qo'shnisi; 10) maktab qorovuli.

3- kichik guruh. Asarda keltirilgan 10 ta daraxt, hayvon, taom va detallar nomi: 1) ot; 2) biya; 3) baytal; 4) sigir; 5) qo'y; 6) o'rik daraxti; 7) suzma; 8) chalop; 9) bir tig'li miltiq; 10) qabr.

2-usul. "Nima uchun...?" metodi. Bunda kichik guruhlar berilgan topshiriq yuzasidan "Nima uchun...?" so'rog'iga bilganlari bo'yicha so'zlab beradilar. Bu usul o'quvchilarning fikrlash, eslab qolish va nutq, so'zlash qobiliyatlarini shakllantiradi.

Umumiy savol: Inodning uchta boyligi bor edi. Ular....

1-kichik guruh: birinchi boyligi – serdaraxt qishlog'i. → Nima uchun?

2-kichik guruh: ikkinchi boyligi – ikki xonali maktabi...→ Nima uchun?

3- kichik guruh: uchinchi boyligi – qorabayir oti... → Nima uchun?

3- usul. "O'yla, izla, top" metodi. Bunda asardagi kichik epizodlarni topish bo'yicha yopiq test beriladi. Bu usul o'quvchilar zehni va diqqatini oshirishga xizmat qiladi.

1-savol: Inodning uyi oldida qanday mevali daraxt bor edi? (o'rik daraxti).

2-savol: Inod mehmonga qaysi taomni taklif qiladi? (chalop).

3- savol: Inod mehmon so'ragan suzmani qayerdan oldi?(tulum).

4-savol: Egamberdi Xudoyberganovning harbiy unvoni qanday edi? (kichik leytenat).

5- savol: hikoyaning oxirgi jumlasini qanday tugaydi? (Inodning qalbidagi maktabiga va qishlog'iga bo'lgan muhabbati nish urib ulgurgan edi).

Dars so'ngida **"Hikoyadan olgan taassurotlarim"** mavzusida matn yozish uyga vazifa sifatida beriladi.

Yuqorida keltirilgan usullar yordamida berilgan hikoya o'quvchilar tushunchalarini kengaytiradi, asarni tahlil qilishga yordam beradi. O'rtoqlarining fikrlarini umumlashtirish, jamlash va xulosa chiqarish ko'nikmasini shakllantiradi.

Endi e'tibor qilaylik, PISA xalqaro tadqiqot topshiriqlari darajalariga qanday talablar qo'yiladi?

– Topshiriqni bajarish uchun talab etiladigan intel-

lektual va fikrlash qobiliyatiga ko'ra ular uchta kognitiv darajaga ajratiladi:

Quyi daraja – bir bosqichli amallar.

O'rta daraja – hodisalarni tavsiflash.

3. Yuqori daraja – murakkab ma'lumotlarni tahlil qilish.

Shu talablarga tayanadigan bo'lsak, biz yuqorida hikoyaning tahlili uchunqo'llagan usullarimiz xalqaro baholash tizimi qoidalarigaimkon qadar javob bera oladi, deb o'ylaymiz. Bundan tashqari, tahlillar o'quvchini kitobni sevishga, qiziqarli asarlarni ko'proq o'qishiga turtki bo'ladi. Chunki, kitob o'qigan sari uning ongi o'sadi, hayotga qarashi o'zgaradi, tafakkur doirasi kengayadi va eng asosiysi, nutqi rivojlanadi.

Ijtimoiy hayotdagi yangilanish va o'zgarishlar adabiyotning o'zida ham, uni o'qitish sohasida ham yangilanishlarni, yangicha yondashuvlarni taqozo etayotgani aniq. Bu jihat ta'lim metodlaridan boshlab darsning tarkibiy qismlarigacha, adabiy ta'lim mazmunidan boshlab o'qituvchi va o'quvchining munosabatlarigacha, o'quv dasturlari, darsliklardan boshlab adabiyot darslarini tashkil etishgacha bo'lgan muammolarning barchasiga bir xilda daxldor bo'lib turibdi. Bugun axborotlar oqimi shiddat bilan kuchayib borayotgan, kompyuter va, umuman, texnika olami inson hayotida tobora kengroq va mustahkamroq o'rin olib borayotgan bir zamon-da kitob o'qish, kitobxonlik muammosining yanada dolzarblik kasb etishi sir emas. Zero, kitob va kitobxonlik inson ma'naviy olamining ajralmas qismi ekan, kitob o'qishni o'rganish, kitobxon ma'naviyatini shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayonidagi eng asosiy vazifa bo'lib qolaveradi. Asarni mana shu tarzda tahlil qilish o'quvchilarni hikoya qahramonlarining vaziyatiga tushganda to'g'ri qaror qabul qilishiga xizmat qiladi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Resublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi

2. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent. -Yangi asr avlodlari. 2020 y 50-57 b

3. Adabiyot. 8-sinf uchun darslik. Toshkent -2019 yil 270-277 b

4. Кололожвари И.ва Сеченикова. Как организовать интегрированный урок, Народное образование. -1999 №1 67-69 б

Sarvinov BERDIYEVA,

Chirchiq davlat pedagogika institutining 2-kurs magistranti

O'QUVCHILARDA MATN BILAN ISHLASH VA TAHLIL QILISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI

O'quvchi o'z ona tili imkoniyatlaridan mahorat bilan samarali foydalana olsa, fikrini ta'sirchan, tushunarli bayon qila bilsa, ajdodlarining boy ilmiy, badiiy merosini chuqur anglasa ona tili ta'limi o'z maqsadiga erishgan bo'ladi. Buning uchun ona tili darslarida foydalaniladigan o'quv materiallari nihoyatda puxta ishlanishi,

ko'nikmalarni kompleks tarzda shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Bir paytning o'zida ham talaffuz, ham imlo, ham so'z boyligini oshirish, qolaversa, mustaqil fikrlashga yo'naltirishga sharoit yaratish zarurati takrorlash jarayonini taqozo etadi. Bu nutqiy mahoratni oshiradi. O'quvchi nutqiy malakasining shakllanishi va